ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

UO‘K:635.62

QOVOQ, QOVOQCHA VA PATISSON MEVALARINING KIMYOVIY TARKIBI HAMDA OZUQA QIYMATI

Jumaniyazova Navbahor Bahtiyarovna Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, b.f.f.d. (PhD)

navbahorjumaniyazova@gmail.com

Tel:+99891427-06-90

https://orcid.org/0000-0001-7462-5052

Annotatsiya: Qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilasiga mansub qovoq, qovoqcha va patisson mevalari oziq-ovqat sanoati, dietologiyada, fitoterapiyada muhim ahamiyatga ega. Ushbu sharh maqolada qovoq, qovoqcha, patisson o‘simliklarining mevasi tarkibidagi asosiy ozuqa moddalari, vitaminlar, minerallar, bioaktiv va fitokimyoviy birikmalar karotinoidlar, flavonoidlar, pektin kabi yuqori biologik faol moddalar manbayi tahlili berilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir tur o‘ziga xos biokimyoviy tarkibga ega bo‘lib, ularning oziq-ovqat sanoatida, farmatsevtikada va sog‘lom turmush tarzida ahamiyati katta hisoblanadi Qovoq karotinoidlar va pektinlar jihatidan, qovoqcha muhim minerallar hamda parhezbop xususiyatlari bilan, patisson esa yosh mevalarida yuqori biologik faollikka ega moddalar bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: Qovoq, qovoqcha, patisson, vitaminlar, minerallar, karotinoidlar, flavonoidlar, pektin, antioksidant.

Аннотация: Плоды тыквы, кабачка и патиссона, принадлежащие к семейству тыквенных (Cucurbitaceae), имеют важное значение в пищевой промышленности, диетологии и фитотерапии. В данной обзорной статье представлен анализ основных питательных веществ, витаминов, минералов, биологически активных и фитохимических соединений, таких как каротиноиды, флавоноиды и пектин, содержащихся в плодах тыквы, кабачка и патиссона. Исследования показывают, что каждый вид имеет свой уникальный биохимический состав, который имеет большое значение в пищевой промышленности, фармацевтике и здоровом образе жизни. Тыква отличается каротиноидами и пектинами, тыква - важными минералами и диетическими свойствами, а патиссон - веществами с высокой биологической активностью в молодых плодах.

Ключевые слова: Тыква, кабачок, патиссон, витамины, минералы, каротиноиды, флавоноиды, пектин, антиоксидант.

Abstract: Pumpkin, zucchini, and pattypan squash, belonging to the Cucurbitaceae family, are important in the food industry, dietology, and phytotherapy. This review article provides an analysis of the main nutrients, vitamins, minerals, bioactive and phytochemical compounds, carotenoids, flavonoids, pectin, and other highly biologically active substances in the fruits of pumpkin, zucchini, and pattypan squash. Studies show that each species has its own unique biochemical composition, which is of great importance in the food industry, pharmaceuticals, and a healthy lifestyle. Pumpkin is distinguished by carotenoids and pectins, zucchini by important minerals and dietary properties, and pattypan squash by substances with high biological activity in young fruits.

Keywords: Pumpkin, zucchini, pattypan squash, vitamins, minerals, carotenoids, flavonoids, pectin, antioxidant.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Kirish. Qovoqdoshlar oilasi (Cucurbitaceae) dunyo bo‘ylab tropik va mo‘tadil mintaqalarda tarqalgan, 100 ga yaqin turkum va 900 dan ortiq turni o‘z ichiga oladi. Qovoqdoshlar oilasi vakillari insoniyat tomonidan qadimdan oziq-ovqat va dorivor o‘simliklar sifatida yetishtirib kelinadi. Hozirgi kunda global iqlim o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi, barqaror qishloq xo‘jaligi tamoyillar dolzarb bo‘lib, ushbu ekinlarning funksional oziq-ovqat sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda [1]. O‘zbekiston sharoitida qovoq an’anaviy ekin bo‘lsa, qovoqcha va patisson yetishtirish hajmi ham yildan-yilga kengayib bormoqda. Ushbu o‘simliklar nafaqat asosiy ozuqa moddalari manbai, balki ularning tarkibidagi biologik faol moddalar tufayli sog‘liqni saqlashni qo‘llab-quvvatlovchi funksional oziq-ovqatlar sifatida qaralmoqda. Qovoq, qovoqcha va patissonning tarkibini chuqur o‘rganish ularni nafaqat an’anaviy iste’mol, balki farmatsevtika, kosmetika hamda biotexnologiya sohalarida ham qo‘llash imkoniyatlarini ochadi. Tadqiqotning maqsadi qovoq, qovoqcha va patisson o‘simliklar mevasining kimyoviy tarkibi, vitaminlar, minerallar, biologik faol moddalar hamda terapevtik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Qovoq asosan poyasi yotib o‘sadi, mevasi yirik, shakli va rangi navga qarab xilma-xildir. Qovoqcha butasimon o‘sadi, uzun, silindrsimon yashil yoki sariq mevalari bilan ajralib turadi [2]. Asosan erta yig‘ilgan, yosh mevasi iste’mol qilinadi. Patissonning o‘ziga xos xususiyati yulduzsimon yoki soatga o‘xshash yassi shakldagi mayda mevasidir. Uning 6–8 kunlik yosh mevalari iste’mol uchun afzaldir. Qovoq, qovoqcha va patisson o‘simliklari ozuqaviy moddalarga, tolalarga boy, kaloriyasi past bo‘lgan mahsulotlar hisoblanadi. Qovoq eng yuqori 15–18% quruq moddaga ega bo‘lib, bu uning uzoq muddat saqlanishiga imkon beradi. Tarkibidagi qand miqdori 4–11% bo‘lib, asosan saxaroza, glyukoza va fruktozadan iborat. Qovoqcha va patisson tarkibidagi qandlar asosan oddiy shakllarda bo‘lib, ularni tez hazm bo‘ladi.

Qovoq karotinoidlar, xususan β-karotin jihatidan eng boy hisoblanadi. *Cucurbita maxima* turlarida karotinoidlar miqdori 170–460 μg/g bo‘lishi mumkin. Qovoq tarkibidagi β-karotin va lyutein kuchli antioksidant ta’sirga ega bo‘lib [3], organizmdagi erkin radikallarni neytrallaydi, immunitet tizimini mustahkamlaydi va degeneratsiyaning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi [4]. Qovoq barglari va gullari mevasiga nisbatan flavonoidlar, fenolik birikmalar jihatidan ancha boyligi aniqlangan. Qovoqcha va patisson ham karotinoidlar, flavonoidlarni o‘z ichiga oladi, ammo miqdori nav va o‘sish sharoitlariga qarab o‘zgarishi mumkin [5]. Biroq, ularning yosh mevalari oksidlanish stressiga qarshi kurashishda foydali hisoblaniladi. Ushbu o‘simliklarning sog‘liqqa bo‘lgan foydali ta’siri, asosan, ularning antioksidant va biologik faol moddalar bilan boy tarkibi bilan bog‘liq.

Qovoq tarkibida bundan tashqari, A, C, E, K vitaminlari va B guruhiga mansub vitaminlar folat, tiamin mavjud [6]. Qovoqcha ham C vitamini, karotin va folat kislotasi manbai hisoblanadi [7]. Patissonning yosh mevasi C vitamini va biotin kabi vitaminlar nisbatan ko‘p hisoblanadi. Qovoqcha mineral moddalarga boyligi bilan ajralib turadi, uning tarkibida kaliy (K), magniy (Mg), fosfor (P) va temir (Fe) miqdori ancha yuqori bo‘lib, 100 g mevasida 150–200 mg kaliy, 20–25 mg magniy va 0.5–0.8 mg temirni o‘z ichiga oladi [8]. Qovoq kaliy, temir va mis (Cu) kabi muhim elementlar manbai hisoblanadi [9]. Patisson ham o‘ziga xos minerallarga ega bo‘lib, uning yosh mevasida kaliy va magniy mavjud [10]. Qovoq, shuningdek, pektinning ajoyib tabiiy manbai bo‘lib, uning miqdori 0.59%–4.24% bo‘lishi mumkin. Oshqozon-ichak peristaltikasini yaxshilaydi. Pektin qon qand miqdorini va xolesterin darajasini tartibga solishda ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Og‘ir metallar va toksinlarni organizmdan chiqarib yuborishga yordam beradi. Bu xususiyatlar qovoqni qandli diabet, ateroskleroz va semirish kabi kasalliklarning oldini olish uchun qimmatli funksional mahsulotga aylantiradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Qovoqning 100 g mevasida 20–30 kaloriya bo‘lib, tarkibida 13% oqsil, 3% yog‘ va 84% uglevod mavjud. Qovoqcha tarkibi jihatidan yengilroq bo‘lib, quruq moddasi 5–8% ni tashkil qiladi. Uglevodlar asosan oddiy shakarlar shaklida bo‘lib, tez hazm bo‘lishiga yordam beradi [11]. Qovoqchaning 100 g mevasida 16–19 kaloriya bo‘lib, tarkibida 24% oqsil, 8% yog‘ va 67% uglevod mavjud [12]. Patisson mevasidagi quruq modda miqdori 6.0–6.5% atrofida, qand miqdori 2.5–2.9% ni tashkil qiladi, bu uni eng kam kaloriyali va eng yengil mahsulotlardan biriga aylantiradi. Patisson 100 g mevasida 16–18 kaloriya bo‘lib, tarkibida 22% oqsil, 8% yog‘ va 70% uglevod mavjud.

Qovoq konserva, jem, pyure sharbat, pektin ekstrakti ishlab chiqarishda, shuningdek, non mahsulotlari va shirinliklarda ingrediyent sifatida ishlatiladi. Qovoqcha va patisson yangi, konservalangan, dudlangan va turli qovurmalar tarkibida iste’mol qilinadi. Qovoqcha va patisson esa bolalar hamda parhez ovqatlanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu ekinlarning po‘sti, urug‘i va bioyoqilg‘i yoki ozuqa qo‘shimchasi sifatida qayta ishlanish qayta ishlashi bu esa chiqindilarni kamaytirish va barqaror ishlab chiqarish tamoyillariga xizmat qiladi.

Xulosa. Qovoq, qovoqcha va patisson ozuqa jihatidan qimmatli, har biri o‘ziga xos biokimyoviy tarkibga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi ekinlaridir. Qovoq karotinoidlar va pektinlar, qovoqcha esa muhim minerallar, patisson esa past kaloriyaliligi hamda noyob bioaktiv tarkibi bilan ajralib turadi. Ushbu mevalarning tarkibidagi antioksidant, gipolipidemik, gipoglikemik va immunomodulyator ta’sirga ega bo‘lgan moddalar ularni nafaqat an’anaviy, balki profilaktik-tibbiy va funksional oziq-ovqatlar tarkibi sifatida ishlatish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fruit and vegetables – Opportunities and challenges for small-scale sustainable farming. the Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO) and Agricultural Research Centre for International Development (CIRAD), 2021.

2. J. Uddain, S. I. Tripti, M. S. Jahan, N. Sultana, M. J. Rahman, and S. Subramaniam, “Changes of Morphological and Biochemical Properties in Organically Grown Zucchini Squash (Cucurbita pepo L .),” HORTSCIENCE, vol. 54, no. 9, pp. 1485–1491, 2019, doi: 10.21273/HORTSCI14168-19.

3. S. E. A. Badr, M. Shaaban, Y. M. Elkholy, M. H. Helal, A. S. Hamza, and M. S. Masoud, “Chemical composition and biological activity of ripe pumpkin fruits (Cucurbita pepo L .) cultivated in Egyptian habitats,” Nat. Prod. Res. Former. Nat. Prod. Lett., pp. 1524–1539, 2013.

4. M. Dinu, R. Soure, G. Hoza, and A. D. Becherescu, “Biochemical Composition of Some Local Pumpkin Population,” Agric. Agric. Sci. Procedia, vol. 10, pp. 185–191, 2016, doi: 10.1016/j.aaspro.2016.09.051.

5. E. Fidiyawati, B. Waluyo, and E. Widaryanto, “SCREENING OF ANTIOXIDANT AND NUTRIENT COMPOUNDS FROM SEVERAL VARIETIES OF ZUCCHINI (Cucurbita Pepo L.) AT DIFFERENT HARVEST AGES IN THE MIDDLE PLAINS,” Nutrients, vol. 8, no. 3, pp. 136–143, 2024.

6. A. Altaf, H. Sharma, and A. Hussain, “Phytochemical Potential and Biological Activity of Pumpkin : A Review,” Food Saf. Heal., pp. 188–201, 2025, doi: 10.1002/fsh3.70001.

7. N. C. Thanh, E. M. Eed, A. Elfasakhany, and K. Brindhadevi, “Antioxidant, anti-inflammatory and anti-proliferative activities of green and yellow zucchini (Courgette),” Appl. Nanosci., vol. 13, no. 3, pp. 2251–2260, 2023, doi: 10.1007/s13204-021-02111-z.

8. A. Y. Medelyaeva, A. F. Bukharov, Y. V. Trunov, I. B. Kirina, L. V. Titova, and O. A. Protasova, “Biochemical evaluation of the assortment of pumpkin vegetable crops for the creation

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

of functional food products Biochemical evaluation of the assortment of pumpkin vegetable crops for the creation of functional food products," Int. Conf. Agric. Sci. Eng., pp. 1–7, 2021, doi: 10.1088/1755-1315/845/1/012093.

9. A. O.R., F. A.G., and O. A.M., "Proximate , Mineral and Anti-Nutrient Evaluation of Pumpkin Pulp (Cucurbita Pepo)," IOSR J. Appl. Chem., vol. 4, no. 5, pp. 25–28, 2013.

10. A. Balbierz and E. Kołota, "Pre-and postharvest nutritional value and storage ability of scallop squash cultivars," J. Hortic. Res., vol. 23, no. 2, pp. 105–110, 2015, doi: 10.2478/johr-2015-0021.

11. M. Y. Kim, E. J. Kim, Y. N. Kim, C. Choi, and B. H. Lee, "Comparison of the chemical compositions and nutritive values of various pumpkin (Cucurbitaceae) species and parts," Nutr. Res. Pract., vol. 6, no. 1, pp. 21–27, 2012, doi: 10.4162/nrp.2012.6.1.21.

12. M. A. A. Seleim, M. A. M. Hassan, and A. S. M. Saleh, "Changes in nutritional quality of zucchini (Cucurbita pepo l .) vegetables during the maturity," J. Food Dairy Sci., vol. 6, no. 10, pp. 613–624, 2015.